

## IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUG'URTANING RO'LI: TENDENSIYA , MUAMMOLAR YECHIMLAR

*Jamolova Xonzoda O'rolboy qizi*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*“Moliya va buxgalteriya hisobi ” fakulteti SD-61 guruh*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda sug'urtani rivojlantirish , milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilish , jadal rivojlantirish yo'llarini tahlil qilish hamda amaliyotga tadbiq etish , aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini mustahkamlash , talab yuqori sug'urta mahsulotlarini ko'lamini kengaytirish hamda xorij tajribasidan foydalangan holda sohadagi innovatsion mexanizmni yaratish xususida fikr-mulohazalar yuritiladi .

**Kalit so'zlar :** Barqaror iqtisodiyot , risk , xavf-xatar , bozor likvidligi , tadbirkorlik tavakkalchiligi , jahon sug'urta bozori , daromadlarning taqsimlanishi.

**Kirish:** Iqlim o'zgarishi , kutilmagan baxtsizliklar kabi xavflar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot ufqida paydo bo'lishi mumkin , bu esa global zaiflikning boshlanishiga qadam demakdir . Shuning uchun ham sug'urta iqtisodiy barqarorlikni taminlashi haqida ko'p iqtisodchilar fikr va mulohazalar bildirishgan . Sug'urta sohasi bu nafaqat bir moliya bozorida o'z ahamiyatiga ega soha bo'libgina qolmay , u butun bir iqtisodiyotning rivojlanishida sezilarli hamda aniq maqsadli yo'nalish bo'lib , mamlakat iqtisodiyotini muvosanatli saqlashda , ya'ni turli xildagi risklarning korxonalar , savdo markazlari , biznes makonlarning qisman bo'lsada yuz berishidan saqlash yoki yuz bergan taqdirda uning o'z faoliyatida birdek to'xtovsiz davom etishiga hissa qo'shadi . Aytish joizki , agar sug'urta bozori kengayib , aholi sug'urta savodxonligi oshsa , bu aholining umumiy iqtisodiy bilimlarining ortgani desak ham mubolag'a bo'lmaydi . Negaki , sug'urta orqali iqtisodiy manfaat topayotgan aholi endi o'z mablag'larini muqobil variantlarga to'g'ri sarflash haqida ko'proq qayg'uradi va bu esa aholi hayot farovonligining ma'lum bir yechimidir . Afsuski , mamlakatimizda sug'urta bozori aytarlik darajada rivojlanmagan bo'lib , mijozlar juda oz qamrovli . Bunda rivojlangan mamlakatlar tajriba yo'lga yana bir bor nazar tashlash kerak . Chunki sug'urta sohasining rivojlanishi global miqyosda ham muhim masalaga aylanib ulgurgan . Sug'urta sohasining amalda keng yuritilishi bozor likvidligini yaxshilashi , kapital taqsimotining takomillashishi , chet et valyutalarining milliy bozorga kirib kelishi , qimmatli qog'ozlar bozori ko'lamining kengayishi , milliy bozorga xalqaro maydondan investitsiyalarning kirib kelishiga katta yo'l ochadi . Shunday ekan ayni sug'urta orqali erishish mumkin bo'lgan istiqbollor hamda yorqin

natijalar uchun harakat qilib vatanimiz O'zbekistonda ham sug'urta bozorini ravnaq toptirish hamda samarali tatbiq etishning barcha chora-tadbirlarini amalga oshirish kerak bo'ladi .

**Adabiyotlar sharhi:** Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tushunchalar mohiyatini olimlar , expertlar tomonidan tortishuvlar , ilmiy –nazariy jihatdan qarashlar va turli nazariyalar bilan ilmiy asoslab berilgan . Huddi shunday sug'urta sohasini ham keng tatbiq etish , uning manfaatli jihatlari , dolzarbligi xususida ham ko'pgina mulohaza va takidlar mavjud . Moliya-iqtisodiy o'sish o'zaro bog'liqlik nazariyasi yillar davomida rivojlangan va asarlardan kuzatilishi mumkin. Schumpeter (1912) va keyinchalik McKinnon (1973). Shumpeterning asosiy argumenti muhim ediki , rag'batlantirishda moliya institutlarining roli texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy faoliyat. Bu ikki funktsiya jamg'arma mobilizatsiyasining moliyaviy faoliyati, loyiha baholash, tavakkalchilik monitoringi va boshqaruvini osonlashtiradi . Boshqa tomondan, McKinnon moliyaviy rivojlanish to'xtab qolganligini ta'kidlaydi , cheklovchi hukumat qoidalari, foiz stavkasi shiftlar, kredit subsidiyalari va yuqori zaxira talablari bank sektori uchun. Ko'rinib turibdiki, o'rtada konsensus mavjud olimlar moliya o'sishini tavsiflashda quyidagicha bog'lanish: (1) sababiy bog'liqlik yo'q; (2) sabab-oqibat munosabati talabga bog'liq, ya'ni iqtisodiy o'sish moliyaviy talabga olib keladi ; (3) sabab-oqibat munosabatlari ta'minotga asoslangan; ya'ni moliya sektoridagi iqtisodiy o'sishga turtki bo'ladi ; (4) salbiy sabab-oqibat munosabatlari moliyadan o'sishgacha; (5) o'zaro bog'liqlik.

Azam-Saini va Smitlarning fikriga ko'ra sug'urtaning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim omillardan biri ekaniga sabab shundaki , iste'molchilar o'zlari foydalanayotgan tavar va xizmatlarning sug'urta qilinganligini bilishsa , bu ularning yanada ko'proq tavarlarni xarid qilishga yoki turli xizmatlardan foydalanishga imkon beradi .

**Tadqiqot metodologiyasi .** Mazkur ilmiy maqolada iqtisodiyotni rivojlantirishda sug'urtaning ro'li borasida jahon tajribasiga tayangan holda yurtimiz O'zbekistonda ham uni kengaytirish , bundan mamlakatimiz iqtisodiyotiga ko'riladigan manfaatlarni , foyda va afzalliklarni qolaversa bu yo'ldagi qiyinchilik, kutilishi mumkin bo'lgan muammolar haqida fikr mulohazalar yuritish uchun vazifalar belgilab olindi . Tadqiqot jarayonida empirik tadqiqotni kuzatish, induksiya, deduksiya, jamlash va ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Sug'urta faoliyati tadbirkorlik tavakkalchiligi oqibatlarini, xalqaro munosabatlardagi savdo, turizm va boshqa jarayonlarda yuzaga keladigan xatarlarni bartaraf etishi, ijtimoiy hayotdagi barqarorlikni ta'minlashi hamda iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilish uchun sezilarli manbalarni shakllantirishi, investitsiya risklarini yumshatishi bilan ajralib turishi ma'lumAynan ushbu

maqsadlarga erishish yo'lida mamlakatimiz prezidenti ham muntazam jonbozliklar ko'rsatadi . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-411-son "Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham buning yorqin misolidir . Shundan so'ng 2023-yil 31-mayda DAVLAT TIBBIY SUG'URTA JAMG'ARMASI ORQALI MOLİYALASHTIRILADIGAN RESPUBLIKA DARAJASIDAGI DAVLAT STATIONAR TIBBIYOT MUASSASALARIDA BEMORLARNI DORI VOSITALARI VA TIBBIY BUYUMLAR BILAN TA'MINLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMI TASDIQLANDI . Ushbu nizom doirasida uzoq muddatda-majburiy tibbiy sug'urtani kengaytirilgan joriy etsih bosqichi – aholining barcha qatlamlarini sug'urta bilan qamrab olish 2023-2025- yillar davomida amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Global miqyosda qaraydigan bo'lsak , Sug'urta sohasining va xususan o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining barqarorligini ta'minlash borasida ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, sug'urta sohasini xalqaro darajada muvofiqlashtirib boruvchi xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning sug'urta nazoratini amalga oshiruvchi tashkilotlari, yetakchi xalqaro reyting agentliklari, sug'urta kompaniyalari, jumladan, Standard&Roor's - Xalqaro reyting agentligi (Develorment Researsh Grou), Yevropa o'zaro sug'urtalash kompaniyalari va sug'urta kooperativlari assotsiatsiyasi – AMISE (Assosiation of Mutual Insurers and insurance Sooreratives in Eurore), O'zaro sug'urta jamiyatlarining xalqaro assotsiatsiyasi – AISAM ("Assosiation Internationale des sosietes Assurance Mutuelle" (International assosiation of mutual insurance somranies)), Sug'urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasi (Mejdunarodnaya Assotsiatsiya Straxovix Nadzorov – MASN, IAIS-International Organization of Insurance Surervisors), Moliyaviy barqarorlik kengashi - FSB (Finansial Stability Board), Kooperativlar va o'zaro sug'urtalash jamiyatlari xalqaro federatsiyasi - (International Soorerative and Mutual Insurance Federation - ISMIF), Sug'urta tadqiqotlari xalqaro assotsiatsiyasi (ISSA) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Quvonarlisi O'zbekiston sug'urta nazoratchilari yuqoridagi xalqaro assotsiatsiyalariga a'zo .

Jumladan: sug'urta tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: sug'urta kompaniyalari faoliyatidagi tizimli ahamiyatga ega ko'rsatkichlar bilan moliyaviy koyeffitsiyentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik holatlari aniqlangan (Standard&Roor's), depozitlarni sug'urtalash orqali bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasi takomillashtilgan (Kunt and Detragiashe, Develorment Researsh Grou). Ushbu xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar olib borish , davlatimiz hududidagi sug'urta

tashkilotlari bilan xalqaro sug'urta tashkilotlari o'rtasida hamkorlik memarandumlarini imzolash ham juda katta qadam bo'lardi .

Sug'urta bu juda katta sohaki , rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozori hatto jahon sug'urta bozorining sezilarli qismini tashkil etadi (AQSH , Yaponiya , Evropa sug'urta bozorlari) . Ushbu davlatlarda iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasini ko'rsatib beruvchi YaIM hajmining 8-12 foizini butun mamlakat bo'yicha faqat sug'urta qoplayotganligi hayratlanarli . O'zbekistonda ham bu ko'rsatgich olib borilayotgan islohatlar natijasida asta-sekin bo'lsada o'sish ko'rsatmoqda.

№	Yillar	YaIM(mlrd sòmda)	Sug'urta mukofotlari (mlrd sòmda)	YaIMda sug'urta mukofotlarining ulushi (%)	Òsish yoki kamayish (%)
1	2013	120861.5	338.5	0.28	+0.02
2	2014	145846.4	439.1	0.30	+0.02
3	2015	171808.3	551.5	0.32	+0.02
4	2016	199325.1	692.6	0.35	+0.03
5	2017	249100.1	927.5	0.37	+0.02
6	2018	407500.0	1635.2	0.40	+0.03
7	2019	511800.0	2314.1	0.45	+0.05
8	2020	580200.0	2213.7	0.38	-0.07
9	2021	734600.0	3733.0	0.50	+0.12
10	2022	888340.0	6231.7	0.70	+0.20

Takidlash kerakki , hayot sug'urtasining ravnaq etishi , hamda aholi ishonchiga erishish mamlakat bo'ylab aholi oriqcha daromadlarining qayta taqsimotining samarasidir . Bir necha yillar hayot sug'urtasi mamlakatimiz bo'ylab umumiy sug'urta mablag'larining 25 % va hatto 30 % gacha bo'lgan ulushini tashkil etardi . Afsuski , W-yilda "Hayot sug'urtasidan foydalanayotgan jismoniy shaxslar 12% li daromad solig'idan ozod etilishi to'g'risida" gi qarorning bekor qilinishi bilan hayot sug'urtasiga bo'lgan talabning keskin tushib ketishi kuzatildi . O'zbekistonda hayot sug'urtasining rivojlanishi uchun quyidagi istiqbolli yo'nalishlarni belgilab olish muhim :

-hayot sug'urtasi tarmog'i va shaxsiy sug'urta turlarini tartibga solishga oid ilg'or xorij tajribalarini inobatga olib, milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish;

-hayot sug'urtasi kompaniyalarining tijorat banklari bilan hamkorlikda hayot sug'urtasi mahsulotlarini aholi orasida keng targ'ib etish mexanizmlarini joriy etish;

-iste'molchilarga hayot sug'urtasi mahsulotlarining keng ko'lamini tatbiq etish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda sug'urta xizmatlarining eletron turlarini faol joriy etish;

**Хулоса ва takliflar** . Iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni qanchalik muhim ekanligini turli yo'nalishlarda tahlil qildik .Sug'urta iqtisodiy o'sish , aholining farovon hayoti garovi hisoblanmish omillardan biri ekan , uni rivojlantirish mamlakatimiz porloq kelajagi uchun mustahkam qadam bo'ladi . Hozirgidek rivojlangan zamonamizda deyarli barcha sohalar raqamlashib borishi , bu ularning ish samaradorligining oshishiga olib kelmoqda . Aynan sug'urta sohasining ham raqamlashishi , qolaversa zamonaviy media vositalarining qo'llanilishi , sohaning kengayishi , aholi ishonchining ortishi bilan bog'liqdir . Bilamizki aholining sug'urta sohasi bo'yicha madaniyati past . Hozirgi kunda aholi o'rtasida sug'urta haqidagi tasavvur, ong,sug'urta madaniyati, sug'urta haqidagi tushunchalar unchalik darajada shakllanmaganligi hech birimizga sir emas. Bu esa, sug'urta sohasidagi eng katta muammodir.Bu muammoga yechim sug'urta sohasining ham marketing jihatlarini namoyon qilish , ya'ni axborot telekommunikatsiyalar orqali reklamalarni ko'paytirish , salohiyatli agentlarni ishga yollash orqali erishish mumkin . Bu o'z navbatida, milliy sug'urta bozorida sug'urtaning innavatsion mahsulotlarini rivojlantirish, sug'urta xizmatlarining hajmi va turlarini kengaytirish , sug'urtasining iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlardagi ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Schumpeter, J.A. (1912), "The theory of economic development", Joseph Alois Schumpeter, , pp. 61-116.
2. McKinnon, R.I. (1973), Money and capital in economic development, Brookings Institution Press
3. Azman-Saini, W. and Smith, P. (2011), "Finance and Growth: New Evidence on the Role of Insurance", South African Journal of Economics, vol. 79, no. 2, pp.111-127.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-411-son "Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori
5. "O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish" Qamariddin Qo'ldoshev Mansurovich T.:2019